

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019. K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

USMONOVA XURSHIDA XOLBOY QIZI

**POLIELEKTROLITLAR ORASIDA KUZATILADIGAN UZOQ
TARTIBDAGI TA’SIRLASHUVGA ASOSLANGAN INTER POLIMER
TIZIMLAR**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации на соискание ученой степени
доктора философии (PhD) по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical
sciences**

Usmonova Xurshida Xolboy qizi

Polielektrolitlar orasida kuzatiladigan uzoq tartibdagi ta'sirlashuvga
asoslangan inter polimer tizimlar 3

Усманова Хуршида Холбой кизи.

Интерполимерные системы, основанные на дальнедействующих
взаимодействиях, наблюдаемых между полиэлектролитами
..... 21

Usmanova Khurshida Kholboy kizi

Interpolymer systems based on long-range interactions observed between
polyelectrolytes..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019. K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Usmonova Xurshida Xolboy qizi

POLIELEKTROLITLAR ORASIDA KUZATILADIGAN UZOQ
TARTIBDAGI TA’SIRLASHUVGA ASOSLANGAN INTER POLIMER
TIZIMLAR

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2024.2.PhD/K774 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik.-kimyo.nuu.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxamediyev Muxtarjan Ganievich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rafikov Adxam Salimovich
kimyo fanlari doktori, professor

Qutlimurodov Nurbek Matkarimovich.
PhD, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Toshkent kimyo-texnologiya instituti


Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil « 25 » dekabr soat « 9³⁰ » dagi majlisida bo'lib o'tadi.
(Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871)246-07-88; faks: (+99824)246-53-21; 246-02-24, e-mail: ilmiy-kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.:(+99871)246-67-71; 277-12-24; faks: (+99871)246-07-88; 246-02-24, e-mail: rector@nuu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 16 » 12 kuni tarqatildi.
(2025 yil « 18 » 12 dagi 35 raqamli reestr bayonnomasi).


Z.A. Smanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
raisi k.f.d., professor


N.X. Qutlimurotova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
ilmiy kotibi k.f.d., professor


M.A. Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
ilmiy seminar raisi k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda sanoat korxonalarining ko‘payishi va kengayishi natijasida oqava va tabiiy suvlar tarkibida og‘ir va zaharli metal ionlarining miqdori ortib bormoqda, bu esa ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Oqava va tabiiy suvlarni samarali tozalashda ion almashinuvchi materiallardan keng foydalaniladi. Ionitlarni regeneratsiya qilib qayta ishlatilishi, arzonligi, samaraliligi sababli, ionitlar asosida yangi texnologiyaga asoslangan ion almashinuvchi sistemalar ishlab chiqarish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda bugungi kunda sanoat ion almashinuvchi materiallar asosida uzoq tartibli ta’sirlashuvga ega bo‘lgan inter polimer tizimlarni olinishiga, fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu sababli inter polimer tizimlar olinishining sharoitlarini optimallashtirish, ekspluatatsion samaradorligini oshirish, og‘ir va zaharli metall ionlariga nisbatan sorbsion xossalarini oshirish hamda sanoatga tadbiriq qilish, ion almashinuvchi materiallar ishlab chiqarish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Respublikamizda samarali ion almashinadigan materiallarga bo‘lgan talabning yuqoriligi tufayli sanoatda qo‘llaniladigan ionitlarni ishlatilish sohasini kengaytirish va amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida¹ “Mahalliy ionitlar yordamida oqava suvlarini og‘ir va zaharli ionlaridan tozalash” ga yo‘naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu maqsadda sanoat ionitlari asosida uzoq tartibdagi ta’sirlarga ega bo‘lgan inter polimer tizimlarni yaratish, olingan tizimlarni fizik-kimyoviy va sorbsion xossalarini o‘rganish hamda ularni qo‘llab sanoat oqava suvlarini sorbsion tozalash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-son “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 13 fevraldagi PF-4992-son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni, 2021 yil 24-iyundagi PQ-5159-son “Kon-metalurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarorida mis sanoat klasteri doirasida loyiha va injiniring xizmatlari, ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish ijrosini ta’minlashda, mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qaroriga 2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida

rivojlanishining VII. Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon olimlari tomonidan sanoat va tabiiy polimerlarni modifikatsiya qilib turli hil ion almashinuvchi funksional polimer materiallar sintez qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Olingan ion almashinuvchi materiallarni sanoat korxonalaridan chiqayotgan oqava va texnologik eritmalaridan turli hil ionlarni ajratib olishda qo'llanilib kelinmoqda. Buning natijasida Cu^{2+} , SCN^- va ReO_4^- ionlarini samarali ajratib olish va ba'zi ekologik muamolarni oldini olishga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Hususan, xorij olimlaridan T. Jumadilov, V. Davankov, N. Dawra, N. Dabas, K.Z. Elwakeel, A.M. Elgarahy, Z.A. Khan, Y. Chjan Grzegorz Voycik, Violeta Neagu O.N. Kononova Fumixiko Ogata va boshqalar sanoat polimerlari va tabiiy polimerlardan olingan ionitlarga Cu^{2+} , SCN^- va ReO_4^- ionlarining sorbsiya mexanizmlarini hamda qo'llanish sohalarini o'rganishgan.

Mamlakatimizda ham ionitlar sintezi, fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish bo'yicha O'N. Musaev, M.A. Askarov, S.Sh. Rashidova, A.T. Jalilov, S.M. Turabjonov, X.A. Akbarov., T.M. Babaev, X.T. To'rayev, O.N. Ro'zimurodov, D.A. Gafurova, D.J. Bekchanov., N.T. Kattaev, T.X. Raximov, M.M. Karimov, M.K. Rustamov va boshqa ko'plab olimlarimiz ilmiy izlanishlar olib borgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlarida, asosan tolasimon anionitlardan va ion almashinuvchi materiallar yordamida Cu^{2+} , SCN^- va ReO_4^- ionlarini sorbsiyasini o'rganish usullari keltirilgan. Lekin sanoat ionitlari va ular yordamida uzoq tartibli ta'sirlashuvga asoslangan interpolimer tizimlar olishning mexanizmlari, ushbu tizimlarga Cu^{2+} , SCN^- va ReO_4^- ionlarini sorbsiyasi, fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-8323102079 "Polikomponent metal va metal oksid sistemalarda kristallfazalarning past haroratlarda struktura hosil bo'lish qonuniyatlari va ularning karbon materiallari sirtida nanotexnologiya usullari bilan qiyin eruvchan funksional materiallar sintez" (2023-2026yy.) fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi polielektrolitlar orasida kuzatiladigan uzoq tartibdagi ta'sirlashuvga asoslangan inter polimer tizimlarni olinishi va qo'llanilishini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoatda keng ko'lamda qo'llaniladigan sorbentlar asosida uzoq tartibdagi ta'sirlashuvga asoslangan yangi ion almashinuvchi sistema yaratishning maq'bul sharoitlarni aniqlash;

sanoatda qo'llaniladigan sulfokationit KU-2-8, anionit AN-31 va hosil qilingan yangi ion almashinuvchi tizimga Cu^{2+} ionlarini sorbsiya kinetikasi va izotermasini o'rganish va sorbsiya jarayonini maq'bul sharoitlarini aniqlash;

sanoatda qo'llaniladigan sulfokationit KU-2-8, anionit AN-31 va hosil qilingan yangi ion almashinuvchi tizimga SCN^- ionlarini sorbsiya kinetikasi va izotermasini o'rganish va sorbsiya jarayonini maq'bul sharoitlarini aniqlash;

o'rganilayotgan ion almashinuvchi tizimlarga Cu^{2+} va SCN^- ionlarining adsorbsiyalanish jarayonini termodinamik qiymatini aniqlash va tahlil qilish;

sanoatda qo'llaniladigan sulfokationit KU-2-8 va anionit AN-31 dan iborat yangi ion almashinuvchi tizimga ReO_4^- ionlarini sorbsiyasini o'rganish;

olingan yangi ion almashinuvchi tizimni sanoatda qo'llanilish sohalarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida AN-31, KU-2-8 ionitlari, AN-31-KU-2-8 interpolimer tizim, mis sulfat, ammoniy rodanid va ammoniy perrenat tuzlari olingan.

Tadqiqotning predmeti adsorbsiya, desorbsiya, regeneratsiya, kinetika, izoterma, termodinamika, zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiq qilish usullari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida zamonaviy nazariy va eksperimental tadqiqot usullari, jumladan, IQ va Raman spektroskopiya, element analiz, atom emission spektrometrik, rentgen flouresen spektroskopiya kabi eksperimental usullaridan; adsorbsiya jarayonlarini o'rganishda izotermalarni Lengmyur va Freyndlix modellari bilan taxlil qilish hamda psevdobirinchi va psevdodikkinchi tartibli kinetik modellari yordamida adsorbsiya kinetikasini ifodalash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uzoq tartibdagi ta'sirlashuvga asoslangan inter polimer tizimning yakka holdagi ionitlarga qaraganda sorbsion hossasi yuqoriroq ekanligi aniqlangan. Buning sababi yaratilgan yangi tizimning elektr o'tkazuvchanligi yuqoriroq ekanligi, ionit tarkibidagi OH^- va kationit tarkibidagi H^+ bilan H_2O molekulalarini hosil qilishi va buning natijasida ionitlar tarkibidagi zaryadlangan guruhlar sonining ko'payishi bilan tushuntirilgan.

ionitlar va interpolimer tizimga mis kationi va rodanid anionlari adsorbsiyasining kinetikasi psevdodikkinchi tartibli kinetik modelga mos ekanligi aniqlangan, bu esa reaksiya tezligiga eritmadagi mis, rodanid ionlari konsentratsiyasidan tashqari polimer tarkibidagi funksional guruhlar konsentratsiyasi ham ta'sir etganligi bilan asoslangan;

yakka holdagi ionitlarga hamda interpolimer tizimga mis kationi va rodanid anionini adsorbsiya izotermalarining borishi barcha ion almashinuvchi tizimlar uchun Lengmyur modeliga mos kelishi aniqlangan;

funksional polimerlar asosida olingan yangi interpolimer tizimning fizik-kimyoviy xossalari va ushbu tizimga mis, rodanid ionlarini dinamik almashinuv sig'imi mis ionlari uchun $DAS=139.7$ mg/g, rodanid ionlari uchun $DAS=142.9$ mg/g ekanligi va KU-2-8-AN-31 tarkibli inter polimer sistemaga dinamik sharoitda ionlarning sorbsiya-desorbsiyasi unumi jarayon 10 marotaba qayta takrorlanganda ham 97% dan kam emasligi va ularning aniqlangan;

inter polimer tizimlardagi sorbsion jarayon anionlar uchun faqat tizim tarkibidagi anionit hisobiga, kationlar uchun sorbsion jarayon ham kationit ham anionit hisobiga borishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat ionitlari AN-31 anioniti va KU-2-8 kationiti asosida uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega bo'lgan interpolimer tizim olishning maq'bul sharoitlari topilgan; uzoq tartibli ta'sirlashuvga asoslangan interpolimer tizim yordamida Cu^{2+} , SCN^- ionlaridan oqava suvlarni samarali tozalash, ReO_4^- ionlarini texnologik eritmalardan ajratib olish imkoniyati aniqlangan;

olingan interpolimer tizim yordamida "MAXAM-CHIRCHIQ" AJ dan chiqayotgan oqava suvlar tarkibidagi Cu^{2+} , SCN^- ionlarini 97% unum bilan ajratib olinishi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi IQ spektroskopiya, spektrofotometriya, rentgen flouresent spektroskopiya, atom emission spektrometrik kabi zamonaviy usullar qo'llanishi bilan aniqlanadi. Adsorbsiya jarayonlar kinetikasi esa psevdobirinchi va psevdodikkinchi tartibli kinetik modellar yordamida tavsiflangan; adsorbsiya izotermasini esa Lengmyur va Freyndlix modellari tenglamalari bilan hisoblangan. Adsorbsiya izotermalari haqidagi zamonaviy nazariyalarda keltirilgan tenglamalar yordamida tadqiqotning amaliy qismidan olingan natijalarni qo'yib tahlil qilish orqali tegishli xulosalar chiqarilgan hamda matematik-statistik usullari bilan hisoblash orqali ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati AN-31 anioniti va KU-2-8 kationitini ma'lum bir masofada ushlab va elektr o'tkazuvchanligini o'lchash orqali uzoq tartibli ta'sirlashuvga asoslangan yangi interpolimer tizimlarni olishning ilmiy asoslarini yaratishdan hamda mis, rodanid ionlarini sorbsiyasini kinetika va izotermalarni tadqiq qilish orqali interpolimer tizimlarning afzalligini ko'rsatish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari amaliy ahamiyati AN-31 anioniti va KU-2-8 kationiti asosida olingan interpolimer tizimlar individual ionitlarga qaraganda sanoat oqava suvlari tarkibidagi zaharli mis, rodanid ionlaridan yuqori unum bilan tozalash imkoniyatiga egaligi bilan aniqlanadi. Bu esa ularni atrof-muhitni muhofaza qilishda keng ko'lamda qo'llanilishiga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat ionitlari yordamida uzoq tartibli ta'sirlashuvga asoslangan yangi interpolimer tizimning fizik-kimyoviy xossalarni o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sanoat ionitlari asosida interpolimer tizimlarga asoslangan oqava suvlarni tozalash qurilmasi yaratilgan hamda yaratilgan qurulma "MAXAM-CHIRCHIQ" AJ dan chiqayotgan oqava suvlarni Cu^{2+} ionlaridan tozalash uchun joriy qilingan ("MAXAM-CHIRCHIQ" AJ ning 2025-yil 21-maydagi № 30-2/34-son ma'lumotnomasi). Natijada kombinat chiqindi suvida mavjud bo'lgan mis ionlarining miqdori 7.8 mg/l dan 0.2 mg/l gacha kamayganligi aniqlangan;

sanoat ionitlari asosida interpolimer tizimlarga asoslangan oqava suvlarni tozalash qurilmasi yaratilgan hamda yaratilgan qurulma "MAXAM-CHIRCHIQ" AJ dan chiqayotgan oqava suvlarni SCN^- ionlaridan tozalash uchun joriy qilingan ("MAXAM-CHIRCHIQ" AJ ning 2025-yil 21-maydagi № 30-2/35-son ma'lumotnomasi). Natijada oqava suvi tarkibida rodanid ionlari konsentratsiyasi dastlabki 5 mg/l dan 0,05 mg/l gacha kamayganligi aniqlandi. Bu esa korxonadan chiqayotgan oqava suvlarni tozaligi tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi talablariga

mos kelishini bildiradi va tashqi muhit ekologiyasiga salbiy ta'sir qilmasligiga xizmat qiladi hamda ijtimoy-iqtisodiy samara bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola respublika, 2 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyasi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 sahifani tashkil etgan.²

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi, yangiligi va zarurligi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari keltirilib, ob'ekti hamda predmetlari aniqlangan. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi respublikamizning fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga to'g'ri kelishi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari to'liq ochib berilgan hamda olingan natijalarning ishonchliligi isbotlangan. Erishilgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati keng qamrovli yoritib berilgan hamda olib borilgan tadqiqot natijalarining amalga oshirilishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmida keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Mis (II) va rodanid ionlarining turli ion almashinuvchi sorbentlar bilan adsorbsiyasi qonuniyatlari (adabiyotlar sharhi)**" deb nomlangan birinchi bobida, sanoat korxonalarida oqava suvlari bilan birgalikda atrof muhitga chiquvchi metal ionlarini zararlari hamda zaharli mis, rodanid ionlarning o'simliklar dunyosiga, hayvonot olamiga, inson organizmiga hamda tabiatga keltiradigan salbiy tasirlari sharhlangan. Eritmalardan turli xil tabiiy, sintetik, granulalangan, tolasimon polimerlarni modifikatsiyalab olingan tarkibida funksional ionogen guruhi mavjud bo'lgan ion almashinuvchi materiallarga Cu^{2+} , SCN^- ionlarini adsorbsiyasi kinetikasi, izotermasi, adsorbsiya natijasida ionlarda kuzatiladigan fizik-kimyoviy o'zgarishlar va sanoatda qo'llanilish sohalari ko'rib chiqilgan. Jahon va respublikamiz olimlari tomonidan ishlab chiqarish korxonalarida oqava suvlari tarkibidagi mis ionlarini tozalash, texnologik eritmalardan ajratib olishda ion almashinuvchi materiallar keng ko'lamda qo'llanilishi, o'rni va ahamiyati bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ushbu bobda qiyosiy ko'rsatib o'tilgan.

Xulosada tadqiqot mavzusining dolzarbligi hamda zarurligi asoslangan, hamda adabiyotlarda keltirilgan nazariy va amaliy natijalarning tahlili asosida dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari belgilab olingan.

² Muallif dissertatsiya ishini bajarishda bergan ilmiy maslahatlari uchun kimyo fanlari doktori, professor D.J. Bekchanovga o'zining samimiy minnatdorligini bildiradi

Dissertatsiyaning “Sanoat ionitlari asosida yangi interpolimer tizimlarning olinishi, sorbsion va fizik-kimyoviy xossalari” deb nomlangan ikkinchi bobida, funksional polimerlar qatoriga kirgan AN-31 anioniti va KU-2-8 kationiti ishtirokida uzoq tartibli ta’sirlashuvga ega bo’lgan interpolimer tizimlarning olinish qonuniyatlari keltirilgan. Ushbu anionit va sulfokationitga hamda interpolimer tizimga mis, rodanid ionlarining adsorbsiya kinetikasi, izotermasi, termodinamikasi va ionlarning adsorbsiyasidan keyin ion almashinuvchi materiallarning fizik-kimyoviy xossalari tekshirilgan va tahlil qilingan.

Dastlab sanoat miqyosida ishlab chiqariladigan funksional polimerlar AN-31 anioniti hamda KU-2-8 kationiti yangi uzoq tartibli ta’sirlashuvga ega bo’lgan interpolimer tizimlarni olishda turli xil fizik-kimyoviy xossalari, massa nisbatlari, o’zaro bir-biriga nisbatan masofa ta’siri o’rganilgan. Sanoat ion almashinuvchi materiallari asosida olingan uzoq tartibli ta’sirga ega interpolimer tizimlar olishda ionitlar orasidagi masofaning eritmani elektr o’tkazuvchanligiga ta’siri 1- rasmda keltirilgan.




1 – Rasm. Ionitlar va interpolimer tizimlarning suvli eritmadagi elektr o’tkazuvchanligi (masofa 0.5sm) (a) hamda elektr o’tkazuvchalikni ionitlar o’rtasidagi masofaga bog’liqligi (b).

Qo’llanilayotgan ion almashinuvchi tizimlarni adsorbsiya jarayoniga tayyorlash maqsadida AN-31 anioniti (OH^- formada), KU-2-8 (H^+ formada) va bir-biriga nisbatan ma’lum masofada joylashtirilgan ushbu ion almashinuvchi materiallar asosida olingan interpolimer sistemalar 48 soat mobaynida distillangan suvda faollashtirildi. Ion almashinuvchi materiallar va ular asosida olingan interpolimer tizimlarning distillangan suvdagi elektr o’tkazuvchanligini kanduktometrik usulda o’lchash orqali aniqlash AN-31 anioniti uchun $18 \mu\text{S}/\text{sm}$, KU-2-8 kationiti uchun $5.2 \mu\text{S}/\text{sm}$ hamda ular asosida olingan interpolimer tizim solingan distillangan suvning elektr o’tkazuvchanligi esa $26.05 \mu\text{S}/\text{sm}$ tashkil qildi. Olingan natijalar va adabiyotlar sharxida berilgan xulosalar o’rganilayotgan jarayoning mexanizmini taklif qilish imkonini berdi. Ya’ni interpolimer tizimlar tarkibidagi kationitdagi H^+ va anionitdagi OH^- ionlari o’zaro ta’sirlashib suv molekulasini hosil qiladi natijada AN-31 anioniti tarkibidagi turli hil amin guruhlaridagi musbat zaryadlar miqdori hamda KU-2-8 kationitning sulfon guruhlaridagi manfiy zaryadlar miqdori ionlanish darajasi ortishi hisobiga ko’payib boradi. Bu esa ushbu anionit va kationitlarning adsorsion qobiliyati ortib borishiga olib keladi.


Uzoq tartibdagi ta'sirga asoslangan tizimlarda ion almashinuvchilar bir-biriga to'g'ridan to'g'ri bog'lanmasdan, masofaviy o'zaro ta'sir qiladi. Bu ionitlarning turli hil ionlarga nisbatan selektivligini ta'minlaydi va adsorbsiya samaradorligini oshiradi. Funktsional polimerlar asosida olingan uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega bo'lgan interpolimer tizimlar olishda ionitlarning bir-biriga nisbatan joylashgan masofasi ham muhim ahamiyatga ega. Bunda ionitlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchi yuzasidan hosil bo'ladigan ta'sirlashuvni o'rganish maqsadida AN-31 anioniti (OH^- formada) va KU-2-8 kationit (H^+ formada) bir biriga nisbatan 2,5 sm; 2 sm; 1,5 sm; 1 sm; 0.5 sm uzoqlikda joylashtirildi. 1(b) – rasmdan ko'rinib turibdiki ionitlar orasidagi masofa o'zaro 0.5 smni tashkil qilganda ion almashinuvchi interpolimer tizimlarning elektr o'tkazuvchanlik xossasi yuqori bo'ldi.

AN-31 anionit va KU-2-8 kationitlarni o'z ichiga olgan uzoq tartibdagi ta'sirga ega inter polimer tizim makromolekulalar funktsional guruhlarining bir-biriga masofaviy o'zaro ta'sir qilish prinsipi asosida tuzilgan sxema 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Uzoq tartibdagi ta'sirlashuvga asoslangan ion almashinuvchi tizimni tuzilish sxemasi.

Sorbsiya jarayonining mexanizmini aniqlashda bir qancha kinetik modellardan foydalaniladi. Ular qatoriga psevdobirinchi tartibli, psevdodikkinchi tartibli kinetik modellar kiradi. AN-31, KU-2-8 va sanoat ionitlari asosida olingan interpolimer tizimlarga mis va rodanid ionlarining adsorbsiyasi tezligi psevdobirinchi tartibli kinetik modelning tenglamasi koordinatlariga ($\log(q_e - q_t)$ t-vaqtga nisbatan bog'liqlikdan) va psevdodikkinchi tartibli kinetik modelning tenglamasi koordinatlariga (t/q_e va t-vaqtga nisbatan bog'liqlikdan) mos ravishda keladigan bog'liqliklar 3,4-rasmlarda keltirilgan.



3-rasm. Cu^{2+} (a) ioni 1)KU-2-8, 2)AN-31, 3)KU-2-8-AN-31 ionitlariga va SCN^- (b) ioni 1)AN-31, 2)KU-2-8-AN-31 ionitlariga psevdobirinchi tartibli kinetik model tenglamasi koordinatlaridagi ifodasi (tuzlarning konsentratsiyasi 0.1M, $T=303\text{K}$)



4-rasm. Cu^{2+} (a) ioni 1)KU-2-8, 2)AN-31, 3)KU-2-8-AN-31 ionitlariga va SCN^- (b) ioni 1)AN-31, 2)KU-2-8-AN-31 ionitlariga psevdodikkinchi tartibli kinetik model tenglamasi koordinatlaridagi ifodasi (tuzlarning konsentratsiyasi 0.1M, $T=303\text{K}$)

Ushbu bog‘liqliklardan topilgan tezlik konstantalari (k_1 va k_2) va korrelyatsiya koefitsiyentlari (R^2) 1-jadvalda keltirilgan. 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki psevdodikkinchi tartibli kinetik model uchun korrelyatsiya koefitsiyenti qiymati psevdobirinchi tartibli model uchun korrelyatsiya koefitsiyenti qiymatidan (R^2) nisbatan yuqoriroq bo‘lganligi adsorbtsiyalanayotgan ionlarning AN-31, KU-2-8 ionitlari va interpolimer tizimlarga yutilishi psevdodikkinchi tartibli kinetik model tenglamasiga ko‘proq mos kelishidan dalolat beradi.

Jarayon kinetikasi pseudo-ikkinchi modelga mos kelishi, sorbsiya jarayoni tezligiga mis va rodanid ionlari konsentratsiyasidan tashqari ion almashinuvchi materiallar tarkibidagi ionogen guruhlar konsentratsiyasi ham ta‘sir ko‘rsatganligini bildiradi.

AN-31, KU-2-8 ion almashinuvchi materiallar va uzoq tartibli ta'sirga ega interpolimer tizimlarga Cu²⁺, SCN⁻ ionlari adsorbsiyasining kinetik ko'rsatkichlari.

Metal ioni	Dastlabki kons. (mol/l)	Pseudo-birinchi tartibli			Pseudo-ikkinchi tartibli		
		Muvozanat adsorbsiyasi q _e (mg·g ⁻¹)	k ₁ (min ⁻¹)	R ²	Muvozanat adsorbsiyasi q _e (mg·g ⁻¹)	k ₂ ·10 ⁻⁵ (g·mg ⁻¹)	R ²
Cu ²⁺		KU-2-8					
	0.03	56,66	0,018	0,628	67,114	10,6	0,99
	0.04	76,47	0,018	0,638	87,719	10,2	0,99
	0.05	81,86	0,019	0,673	94,339	10,2	0,99
	0.06	87,72	0,018	0,637	103,093	7,27	0,98
	0.07	96,36	0,017	0,645	116,279	5,36	0,97
	0.08	105,87	0,020	0,591	129,870	4,19	0,97
	0.1	112,42	0,019	0,628	138,889	3,86	0,96
		O'rtacha k ₁ va k ₂	0,018		7.38		
		AN-31					
	0.03	57,76	0,009	0,665	101,01	2,01	0,98
	0.04	64,74	0,008	0,668	107,527	2,05	0,98
	0.05	70,76	0,009	0,669	114,942	2,09	0,94
	0.06	73,06	0,007	0,713	106,383	2,99	0,99
	0.07	77,16	0,008	0,664	104,167	3,86	0,99
	0.08	82,36	0,009	0,670	107,527	4,23	0,99
	0.1	87,43	0,009	0,635	109,890	4,77	0,99
		O'rtacha k ₁ va k ₂	0,084		3.14		
		KU-2-8-AN-31					
	0.03	189	0,019	0,576	222,22	2,51	0,9061
0.04	232	0,009	0,670	256,41	3,55	0,9673	
0.05	261	0,015	0,597	285,714	3,92	0,9862	
0.06	255	0,015	0,556	285,714	3,09	0,9658	
0.07	277	0,013	0,730	303,03	4,62	0,9897	
0.08	293	0,012	0,666	312,5	4,95	0,9913	
0.1	297	0,012	0,722	312,5	6,09	0,9973	
	O'rtacha k ₁ va k ₂	0,025		4.1			
SCN ⁻		AN-31					
	0.03	115,5055	0,0149	0,6521	115,5055	2,73	0,9927
	0.04	123,2262	0,0170	0,6677	123,2262	1,78	0,9966
	0.05	131,0062	0,0163	0,6659	131,0062	2,59	0,9972
	0.06	148,8455	0,0172	0,6608	148,8455	1,63	0,9979
	0.07	174,9676	0,0156	0,630	174,9676	1,18	0,9939
	0.08	192,4211	0,0175	0,6786	192,4211	8,08	0,9974
	0.1	217,3694	0,0172	0,7189	217,3694	5,28	0,998
		O'rtacha k ₁ va k ₂	0,0165		3,32		
		KU-2-8-AN-31					
0.03	140,99448	0,01773	0,6763	140,99448	3,09	0,9898	
0.04	169,91026	0,01958	0,7138	169,91026	4,33	0,9888	

0.05	201,37733	0,01935	0,6862	201,37733	4,618	0,9951
0.06	216,94151	0,01842	0,6781	216,94151	4,783	0,9956
0.07	241,61027	0,01865	0,7091	241,61027	4,435	0,998
0.08	267,27895	0,01958	0,6493	267,27895	5,170	0,998
0.1	295,12367	0,02073	0,671	295,12367	5,511	0,9985
O'rtacha k_1 va k_2		0,01915		4,563		

AN-31, KU-2-8 ionitlari va interpolimer tizimlarga Cu^{2+} , SCN^- ionlarining adsorbsiya mexanizmini chuqurroq tahlil qilish maqsadida adsorbsiya izotermalari zamonaviy nazariyalar yordamida taxlil qilindi. Izotermalarni tuzishdan oldin ionitlarning sorbsion qobiliyati eritma pH muhitiga bog'liq bo'lganligi uchun kuchsiz anionit bo'lgan AN-31 hamda KU-2-8 sulfokationit funksional polimerlarga Cu^{2+} , SCN^- ionlarining turli xil pH muhitlarda adsorbsiyasi o'rganildi. AN-31 anionitlarida sorbsiya jarayonlari pH-4.2 da yuqori darajada sodir bo'lgan. AN-31-KU-2-8 tarkibli interpolimer tizimlar uchun ham optimal pH qiymati 4.2 ekanligi kuzatildi.

Uzoq tartibli ta'sirga ega interpolimer tizimlarni olishda adsorbsiyaga AN-31 va KU-2-8 qatronlarining massa nisbatlarini (6:0; 5:1; 4:2; 3:3; 2:4; 1:5) o'zgarish ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval

Uzoq tartibdagi ta'sirga asoslangan interpolimer tizimlarni olishda anionit va kationitning o'zaro mol nisbatlarini adsorbsiyaga ta'siri.

Adsorbsiya davomiyligi, (soat)	Nisbat					
	6:0	5:1	4:2	3:3	2:4	1:5
	qe mg/g					
1	162.07	156.37	154.25	241.33	166.79	142.67
2	175.92	168.73	164.35	263.87	176.85	151.68
3	198.82	184.04	179.24	286.41	196.76	169.44
4	216.92	203.73	187.71	263.87	218.89	184.78
5	239.91	217.04	196.20	286.41	234.76	198.79
6	247.23	226.47	203.16	293.59	252.68	227.49
24	256.25	231.73	215.68	295.12	261.75	246.73


Olingan AN-31 anioniti va KU-2-8 kationiti asosidagi uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega interpolimer tizimlarda AN-31 va KU-2-8 ionitlarining mol nisbatlari 3:3 (ya'ni 1:1) bo'lganda sorbsiya unumi yuqori bo'ldi.

Olingan yakka holdagi ionitlar va yaratilgan inter polimer tizimlarning sorbsion xossalarini baholash maqsadida ushbu ion almashinuvchi sistemalarga kation bo'lgan Cu^{2+} ionlarini va anion bo'lgan SCN^- ionlarining adsorbsiyasi qiyosiy tekshirilgan.




5-rasm. Cu^{2+} (a) ioni 1)KU-2-8, 2)AN-31, 3)KU-2-8-AN-31 ionitlariga va SCN^- (b) ioni 1)AN-31, 2)KU-2-8-AN-31 ionitlarga adsorbsiyasi izotermasi.

5-rasmda Cu^{2+} , SCN^- ionlarining turli xil ionitlarga yutilish izotermalari berilgan. Ko‘rinib turibdiki KU-2-8 kationiti va AN-31 anionitidan iborat uzoq tartibli ta‘sirlashuvga asoslangan interpolimer ion almashinuvchi tizimlarga adsorbsiya qiymati eng yuqori bo‘lgan.



6-rasm. Cu^{2+} (a) ioni 1)KU-2-8, 2)AN-31, 3)KU-2-8-AN-31 ionitlariga va SCN^- (b) ioni 1)AN-31, 2)KU-2-8-AN-31 ionitlariga adsorbsiyasini Lengmyur chiziqli tenglamasi koordinatalaridagi ifodasi



7-rasm. Cu^{2+} (a) ioni 1)KU-2-8, 2)AN-31, 3)KU-2-8-AN-31 ionitlariga va SCN^- (b) ioni 1)AN-31, 2)KU-2-8-AN-31 ionitlariga adsorbsiyasini Frenclix chiziqli tenglamasi koordinatalaridagi ifodasi q_e

Ionitlarga Cu^{2+} , SCN^- ionlarining adsorbsiya izotermalarini Lengmyur va Freyndlix modellari chiziqli tenglamalari koordinatalarida ifodasi 6,7-rasmlarda keltirilgan.

3-jadval

AN-31, KU-2-8 ionitlari va interpolimer tizimlarga Cu^{2+} , SCN^- ionlari adsorbsiyasining Lengmyur va Freyndlix tenglamalari konstantalarining qiymatlari

Ionitlar	Sorbsiyalangan ion	Lengmyur konstantalari				Freyndlix konstantalari		
		q_{\max} mg/g	K_L l/mol	R_L	R^2	n	K_F	R^2
AN-31	Cu^{2+}	145,4	0,002	0,514	0,916	1,45	2,23	0,85
KU-2-8		216,4	0,012	0,191	0,981	2,79	11,61	0,93
Inter.p Tizim		307,7	0,011	0,026	0,997	11,7	156,4	0,98
AN-31		282,5	0,0008	0,275	0,891	2,76	10,31	0,85
Inter.p Tizim	SCN^-	352,2	0,0015	0,186	0,984	2,87	18,48	0,96



3-jadvalda adsorbsiya izotermasining Lengmyur va Freyndlix tenglamalari bo'yicha hisoblangan natijalari keltirilgan. Freyndlix parametrlari qiymatlariga ko'ra KU-2-8, AN-31 ionitlari va interpolimer tizimlarga Cu^{2+} hamda SCN^- ionlari adsorbsiyasida «n» ning qiymati mos ravishda 1,45; 2,79; 11,76; va 2,76; 2,87 ga teng. «n» qiymati inter polimer tizimlar uchun yuqoriroq bo'lganligi mis, rodanid ionlarining adsorbsiyasi ularga yaxshiroq borganligidan dalolat beradi. Lengmyur adsorbsiya izotermalari hisoblari bo'yicha korrelyatsiya koeffisienti R^2 qiymatlari barcha ion almashinuvchi tizimlar uchun Cu^{2+} va SCN^- ionlarida Freyndlix adsorbsiya izotermalari hisoblari bo'yicha topilgan korrelyatsiya koeffisienti R^2 qiymatlaridan yuqori. Demak KU-2-8 va AN-31 ionitlari hamda inter polimer sistemasiga Cu^{2+} va SCN^- ionlari adsorbsiyasining izotermalari Lengmyur izoterma modeli yordamida yaqollroq ifodalanishini ko'rishimiz mumkin.

KU-2-8 va AN-31 ionitlar va ular asosidagi inter polimer tizimlarga 293 dan 313K haroratlar oraliqlarida sun'iy eritmadan Cu^{2+} va SCN^- ionlarining adsorbsiya jarayonlarida termodinamik parametrlarning o'zgarishi 4-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki erkin energiyani o'zgarishi inter polimer tizimda eng katta ya'ni ushbu tizimning Cu^{2+} va SCN^- ionlariga nisbatan moyilligi eng yuqori.

Sun'iy eritmalardan Cu^{2+} va SCN^- ionlarining adsorbsiya jarayoni termodinamik parametrlari

Ionitlar	Sorbsiyalangan ion	ΔH^0 (J/mol)	ΔS^0 (J/molK)	ΔG^0 (J/mol)		
				293 K	303 K	313 K
AN-31	Cu^{2+}	3643	39.5	-6089	-8320	-10392
KU-2-8		2100	41.5	-8039	-10484	-12066
Interpolimer tizim		1958	57.8	-15910	-16564	-17703
AN-31	SCN^-	2124	36.5	-6281	-8832	-9727
Interpolimer tizim		1750	43.1	-9775	-11303	-12155

8-rasmda ion almashinuvchi tizimni tashkil qiluvchi ionitlarning Cu^{2+} ionlari sorbsiyasidan so'ng rentgenfluorissent (ED-XRF) analiz tahlili keltirilgan




8-rasm. Inter polimer sistemasidagi AN-31 anionit (a) va KU-2-8 sulfo kation almashinuvchi (b) larning Cu^{2+} ionlari sorbsiyasidan keyingi

ED-XRF tahlili.

ED-XRF spektridan ko‘rinib turibdiki inter polimer tizim tarkibidagi ionlarni ikkalasi ham Cu^{2+} ionlarini adsorbsiyalagan. Cu^{2+} ionlarining sorbentlar tarkibidagi intensivligi AN-31 anion almashinuvchi uchun 455 va KU-2-8 sulfo kation almashinuvchi uchun 485ga teng. Demak ikkala sorbent ham amalda bir biriga yaqin bo‘lgan Cu^{2+} ionlarining miqdorini yutar ekan.

Cu^{2+} ioni ionitlarga qanday bog‘langanligini aniqlash uchun ionitlar va Cu^{2+} ioni tutgan ionitlarni infraqizil (IQ) spektrlari o‘lchangan (9-rasm). AN-31 anion almashinuvchiga Cu^{2+} ionlari azot atomiga SO_4^{2-} ionlari orqali bog‘langanligini 3250 va 1030 cm^{-1} sohadagi cho‘qqilardagi intensivligi keskin ortib ketishi isbotlaydi. Sulfoguruhning kislorod atomlari va metal ioni orasida bog‘lanish paydo bo‘lganligini 610 cm^{-1} sohadagi cho‘qqi ko‘rsatib turibdi. KU-2-8 sulfo kation almashinuvchiga Cu^{2+} ionlari sulfon guruhlarga ion bog‘i orqali bog‘langanligi haqida 3150, 1120, 1000 va 620 cm^{-1} sohadagi cho‘qqilarning paydo bo‘lishi yoki intensivligi ortishi dalolat beradi.



9-rasm. AN-31 anion almashinuvchi (1) va Cu^{2+} ionlari tutgan AN-31(2) (a) hamda KU-2-8 kationiti(1) va Cu^{2+} ioni tutgan KU-2-8(2) (b) infraqizil spektrlari


Sanoatda asosan eritmalardan ionitlar yordamida turli hil ionlarni ajratib olish ko‘proq dinamik usulda olib borilganligi uchun mis va rodanid ionlarini inter polimer tizimlarga dinamik adsorbsiyasi tekshirildi. Qurilmaning mis ionlari bo‘yicha $\text{DAS}=139.7$ mg/g, rodanid ionlari bo‘yicha $\text{DAS}=142.9$ mg/g bo‘lib chiqdi.

Interpolimer tizimlarga asoslangan oqava suvlarni tozalash qurilmasi yaratildi va “MAXAM-CHIRCHIQ” AJ dan ajralib chiqadigan oqava suvlarini tozalash uchun sinovdan o‘tkazildi. Uzoq tartibdagi ta’sirlashuvga asoslangan interpolimer tizimlar “MAXAM-CHIRCHIQ” AJ “Oqava suvlarni nazorat qilish” bo‘limi hodimlari bilan birgalikda oqava suv tarkibidan Cu^{2+} va SCN^- ionlarini adsorbsiyalashda tekshirildi va ushbu ionlarning konsentratsiyasini ruxsat etilgan darajagacha tushirildi. Sinovdan o‘tkazilayotgan interpolimer tizim asosidagi qurilmada oqava suvlarni Cu^{2+} va SCN^- ionlaridan tozalash bo‘yicha sorbsiya va desorbsiya jarayonlari 10 marta takror o‘tkazildi, buning natijasida interpolimer tizimning sorbsion xossalari deyarli o‘zgarmadi. Sorbsiya qilingan Cu^{2+} ionlarini


desorbsiya qilish uchun H_2SO_4 ning 5% li suvli eritmasidan va SCN^- ionlarini desorbsiya qilish uchun $NaOH$ 4% li eritmasidan foydalanildi.

Tajriba olib borish maqsadida ion almashinuvchi material bilan to'ldirilgan 1 l hajmdagi kalonka orqali 1000 l hajmdagi oqava suvi o'tkazildi. Natijada korxonadan chiqayotgan oqava suvni interpolimer tizimlar asosida yaratilgan qurilmadan o'tkazish orqali Cu^{2+} ionlarining miqdori 7.8 mg/l dan 0.2 mg/l gacha, SCN^- ionlarining miqdori 5 mg/l dan 0.05 mg/l gacha kamaydi. Natijada korxonadan chiqayotgan oqava suv atrof muhit ekologiyasiga salbiy ta'sir qilmasligi ko'rildi.


Yangi olingan inter polimer sistemani boshqa ionlarga bo'lgan ta'sirini tekshirish maqsadida AN-31 anionitiga va sistemaga ReO_4^- ionlarini adsorbsiyasi o'rganildi. Adsorbsiya miqdorini aniqlash uchun dastlabki va adsorbsiyadan keyingi eritmalardagi ReO_4^- ionlarining konsentratsiyasi atom emission spektroskopik tahlil yordamida aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra inter polimer sistemadan o'tkazilgan eritmada perrenat ionlarining miqdori (2514 ppm) AN-31 anionitidan o'tkazilgan eritmaga qaraganda deyarli 3 baravar (7885 ppm) kam bo'lgan(10-rasm).



a)



b)



с)

10-rasm. ReO_4^- ionlarini dastlabki(a) va AN-31 anionitida(b), inter polimer sistemada(c) adsorbsiyadan keyingi eritmalarning atom emission spektroskopik analizi.

XULOSALAR

1. Sanoat ionitlari asosida uzoq tartibli ta'sirlashuvga ega yangi interpolimer tizim olishning maqbul sharoitlari: AN-31 anioniti (OH^- shaklida) va KU-2-8 kationiti (H^+ shaklida) 1:1 mol nisbatda va o'zaro bir biriga nisbatan ionitlar zarrachlarini molekular radiusdan katta bo'lgan 0,5 sm masofada joylashtirish va 48 soat davomida distillangan suv bilan yuvib faollashtirish mumkinligi aniqlandi.
2. AN-31 anionitiga va KU-2-8 kationitiga hamda ular asosidagi interpolimer tizimlarga suvli eritmalaridan Cu^{2+} ionlarini adsorbsiyasining maqbul muhiti pH 4.2 ekanligi ta'kidlandi.
3. AN-31, KU-2-8 ionitlarga va interpolimer tizimlarga Cu^{2+} ionlarining sorbsiya kinetikasi psevd-ikkinchi tartibli kinetik modelga mos ekanligi aniqlandi va reaksiya tezligiga (geterogen bo'lishiga qaramasdan) yutilayotgan ionlar konsentratsiyasidan tashqari ionit tarkibidagi funksional guruhlarining konsentratsiyasi ham ta'sir qilishi isbotlandi.
4. AN-31, KU-2-8 ionitlarga va ular asosidagi interpolimer tizimlarga SCN^- ionlarining sorbsiya kinetikasi o'rganildi va olingan natijalar huddi mis ionlarining adsorbsiya jarayoni kabi, psevd-ikkinchi tartibli kinetik modelga mos ekanligi aniqlandi.
5. AN-31, KU-2-8 ionitlar va interpolimer tizimlarga mis va rodanid ionlari adsorbsiyasiga harorat va yutilayotgan ionlar konsentratsiyasini ta'sirini tadqiq qilish orqali adsorbsiya izotermalari tuzilib, ularning borishi Lengmyur chiziqli tenlamasiga ko'proq mos ekanligi aniqlandi.
6. AN-31 anionitiga, KU-2-8 kationitiga hamda ular asosidagi inter polimer tizimga Cu^{2+} va SCN^- ionlarining adsorbsiya jarayonining termodinamikasi

hisoblanib, erkin energiyaning o'zgarishi inter polimer tizimda eng katta ekanligi, ushbu tizimning Cu^{2+} va SCN^- ionlariga nisbatan moyilligining yuqoriligi, uni "MAXAM-CHIRCHIQ" AJ dagi oqava suvlar tarkibidagi Cu^{2+} va SCN^- ionlarini ajratib olishda qo'llash uchun tavsiya qilindi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/30.12.2019.К.01.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

УСМАНОВА ХУРШИДА ХОЛБОЙ КИЗИ.

**ИНТЕРПОЛИМЕРНЫЕ СИСТЕМЫ, ОСНОВАННЫЕ НА
ДАЛЬНОДЕЙСТВУЮЩИХ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯХ, НАБЛЮДАЕМЫХ
МЕЖДУ ПОЛИЭЛЕКТРОЛИТАМИ**

02.00.06 – Высокомолекулярные соединения

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024_1. PhD/K724

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках [узбекский, русский, английский (резюме)] размещен на веб-странице по адресу www.ik-kimyo.nuu.uz и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель:	Мухамедиев Мухтаржан Ганиевич доктор химических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Рафиков Адхам Салимович доктор химических наук, профессор Кутлимуродов Нурбек Маткаримович PhD, доцент
Ведущая организации:	Ташкентский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится «25» декабря 2025 г. в 9:30 часов на заседании разового научного совета при Научном совете PhD.03/30.12.2019.K.01.03 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (998 71) 246-07-88; (998 71) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: ilmiy-kengash@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован за № 36) (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-67-71; 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: rector@nuu.uz).

Автореферат диссертации разослан «16» декабря 2025 г.
(протокол рассылки № 35 от «15» декабря 2025 г.).


З.А. Сманова
Председатель разового
научного совета по
присуждению учёной степени
доктора наук, д.х.н., профессор


Н.Х. Кутлимуратова
Ученый секретарь разового
научного совета по
присуждению учёной степени
доктора наук, д.х.н., профессор.


М.А. Махкамов
Председатель разового научного
семинара при научном совете по
присуждению учёной степени доктора
наук, д.х.н., профессор.



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Рост и расширение промышленных предприятий в мире на сегодняшний день привели к увеличению содержания ионов тяжёлых и токсичных металлов в сточных и природных водах, что создаёт экологические проблемы. Ионообменные материалы широко используются для эффективной очистки сточных и природных вод. Иониты имеют большое практическое значение, поскольку их можно использовать многократно, а технологии очистки воды на их основе дешевле и эффективнее других методов.

В мировой практике на сегодняшний день особое внимание уделяется получению и улучшению физико-химических свойств интерполимерных систем с дальнедействующим взаимодействием на основе промышленных ионообменных материалов. В связи с этим оптимизация условий получения интерполимерных систем, повышение эффективности их эксплуатации, увеличение сорбционных свойств по отношению к ионам тяжелых и токсичных металлов, их промышленное применения и снижение себестоимости производства ионообменных материалов имеют важное научное значение.

Сегодня, в связи с высокой потребностью в эффективных ионообменных материалах в нашей Республике, проводится ряд научных исследований, направленных на расширение сфер применения ионитов, используемых в промышленности, и внедрение их в практику. В новой Стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы обозначены важные задачи, направленные на «Очистку сточных вод от тяжёлых и токсичных ионов с использованием локальных ионитов». Для этого одним из основных вопросов является создание интерполимерных систем длительного действия на основе промышленных ионитов, изучение физико-химических и сорбционных свойств полученных систем и сорбционная очистка промышленных сточных вод с их использованием.

Результаты данного диссертационного исследования в определенной степени послужат обеспечению выполнения проектных и инжиниринговых услуг, развитию научных исследований в рамках кластера медной промышленности, а также реализации задач, определенных в других нормативно-правовых актах, связанных с этой деятельностью, в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 3 апреля 2019 года № ПП-4265 «О мерах по дальнейшему реформированию химической промышленности и повышению ее инвестиционной привлекательности», № ПФ-4992 от 13 февраля 2021 года «О мерах по дальнейшему реформированию и укреплению финансовой устойчивости предприятий химической промышленности, развитию производства химической продукции с высокой

добавленной стоимостью» и Постановлением № ПП-5159 от 24 июня 2021 года «О дополнительных мерах по развитию горно-металлургической промышленности и смежных с ней отраслей».

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики. Исследования выполнены в соответствии с Приоритетным направлением развития науки и технологий республики VII. Химические технологии и нанотехнологии.

Степень изученности проблемы.

